TURIZM SOHASIDA DAVLAT TILI VA ÇET TILLARINING MUTANOSIBLIGI

Jamolidinova Nodiraxon Jörabek qizi
Andijon Davlat Çet Tillari Institut 106-guruh XTA talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada turizm sohasida davlat tili va çet tillarining özaro nisbati, ularning qöllaniş doiralari hamda mutanosiblikni ta'minlaş masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda özbek tilining davlat tili sifatidagi mavqei bilan turistlarga xizmat körsatişda çet tillariga bölgan amaliy ehtiyoj bir-biriga qarama-qarşi emas, aksinça, bir-birini töldiruvçi omillar ekani asoslanadi. Yöl körsatkiçlar, axborot lavhalari, menyu, veb-sahifalar va gidlar nutqi misolida tilning yozma hamda oğzaki şakllarida uçraydigan kamçiliklar körsatiladi. Muallif davlat tili birinçi örinda, çet tillari esa unga hamroh bölib qöllanişiga asoslangan vazifaviy taqsimot modelini taklif etadi. Maqola natijalaridan turizm kadrlarini tayyorlaşda va soha böyiça til siyosatini amalga oşirişda foydalaniş mumkin.

Kalit sözlar: turizm, davlat tili, çet tillari, til siyosati, köp tillilik, turistik diskurs, lingvistik landşaft, mutanosiblik.

Аннотация. В статье рассматривается соотношение государственного языка и иностранных языков в сфере туризма, области их использования и вопросы обеспечения баланса между ними. Обосновывается, что статус узбекского языка как государственного и практическая потребность в иностранных языках при обслуживании туристов не противоречат друг другу, а дополняют друг друга. На примере указателей, информационных табличек, меню, веб-страниц и речи гидов выявляются недостатки письменной и устной форм языка. Автор предлагает модель функционального распределения, в которой государственный язык занимает первое место, а иностранные языки используются наряду с ним. Результаты исследования могут быть использованы при подготовке туристских кадров и реализации языковой политики в данной сфере.

Ключевые слова: туризм, государственный язык, иностранные языки, языковая политика, многоязычие, туристский дискурс, лингвистический ландшафт, баланс.

Abstract. This article examines the balance between the state language and foreign languages in the tourism sector, the spheres in which they are used, and ways of keeping them in proportion. It argues that the status of Uzbek as the state language and the practical need for foreign languages in serving tourists are not opposing demands but complementary ones. Using road signs, information plaques, menus, web pages and guides' speech as examples, the author identifies typical shortcomings in written and spoken language use. A model of functional distribution is proposed in which the state language comes first and foreign languages accompany it. The findings can be applied in training tourism personnel and in implementing language policy in the field.

Keywords: tourism, state language, foreign languages, language policy, multilingualism, tourism discourse, linguistic landscape, balance.

Kiriş. Sönggi yillarda Özbekistonda turizm iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu sohaning rivoji nafaqat mehmonxona, transport va yönalişlar sifatiga, balki xorijlik mehmon bilan qanday tilda, qançalik tuşunarli va madaniyatli muloqot qilinişiga ham boğliq. Sayyoh safarga çiqişdan oldin veb-sahifaga kiradi, yetib kelgaç, yöl körsatkiçlarni öqiydi, gid bilan gaplaşadi, tarixiy obida oldidagi lavhaga qaraydi, keçqurun esa ovqatlaniş uçun menyuni varaqlaydi. Bu zanjirning har bir böğinida til iştirok etadi.

Şu örinda ikki xil vazifa yuzaga keladi. Bir tomondan, özbek tili Konstitutsiyaga köra davlat tili bölib, jamoat joylarida, reklama va axborot vositalarida uning örni mustahkam bölişi lozim. Ikkinçi tomondan, mamlakatga kelayotgan sayyohlarning katta qismi özbek tilini bilmaydi, ularga ingliz, rus, xitoy, koreys, turk, nemis kabi tillarda xizmat körsatilmasa, tarmoqning raqobatbardoşligi pasayadi. Amalda esa bu ikki vazifa köpinça bir-biriga qarama-

qarşi qöyiladi: kimdir çet tilidagi yozuvlar haddan ziyod köpayib ketganidan norozi bölsa, boşqalar tarjima sifatining pastligi va çet tilidagi axborot yetişmasligidan şikoyat qiladi.

Maqolaning maqsadi mana şu ziddiyat qançalik haqiqiy ekanini körsatiş va mutanosiblikning amaliy şaklini asoslaşdan iborat. Maqsadga erişiş uçun quyidagi vazifalar belgilandi: sohaga oid me'yoriy asoslarni örganiş; turizmdagi asosiy muloqot vaziyatlarini aniqlaş; yozma va oğzaki matnlardagi tipik kamçiliklarni guruhlaş; davlat tili bilan çet tillarining vazifaviy taqsimoti modelini taklif etiş.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Turizm va til munosabatlari xorij tilşunosligida ötgan asrning 80-yillaridan boşlab alohida yönaliş sifatida örganila boşlandi. E.Koen va R.Kuper turizmda til qöllanişining bir neça vazifasini ajratib, uni sayyoh bilan mahalliy aholi örtasidagi aloqa vositasi, axborot tarqatiş va işontiriş quroli hamda hududning madaniy öziga xosligini körsatuvçi belgi sifatida talqin qiladi. G.Dann turistik matnlarning asosiy xususiyati öquvçini tavsiya etilgan joyga borişga işontiriş ekanini, şu sababli bunday matnlarda til tanlovi tasodifiy bölmasligini ta'kidlaydi. K.Terlou va A.Yavorskiy esa turizm diskursida mahalliy til köpinça yagona muloqot vositasi sifatida emas, balki "öziga xoslik" belgisi sifatida, ya'ni bir-ikki söz darajasida kiritilişini körsatadi; bunday holat tilning haqiqiy mavqeini aks ettirmasdan, faqat uning körinişiga xizmat qilişi mumkin.

D.Kristal ingliz tilining xalqaro aloqa vositasiga aylanişini tarixiy-ijtimoiy jarayon sifatida tahlil qiladi va bu holat boşqa tillarning örnini öz-özidan egallamasligini, köp hollarda ular bilan yonma-yon yaşaşini körsatadi. B.Spolskiy til siyosatini uç tarkibiy qismdan: amaldagi til qöllanişi, til haqidagi qaraşlar va rasmiy boşqaruv çoralaridan iborat deb qaraydi. Bu fikr turizm sohasi uçun muhim: qonunda belgilangan talab bilan kundalik amaliyot örtasida tafovut bölişi mumkin. R.Kuper til rejalaştirişni maqom, korpus va örganiş rejalaştirişiga ajratadi; turizmga tatbiq etilganda bu tilning qaysi vaziyatda qöllanişi, matn sifati hamda kadrlar tayyorlaş masalalariga mos keladi.

Lingvistik landşaft nazariyasi (R.Landri, R.Burye) jamoat joylaridagi yozuvlarni til mavqeining körsatkiçi sifatida talqin qiladi: şahar muhitida qaysi til köproq va qanday körinişda uçrasa, şu til jamiyatda şunçalik közga taşlanadigan hisoblanadi. Lingvomamlakatşunoslik va tarjimaşunoslik nuqtayi nazaridan E.M.Vereshchagin, V.G.Kostomarov hamda S.Vlaxov, S.Florinlar milliy realiyalarni boşqa tilga ötkaziş muammosiga töxtalib, ularni qanday beriş – transliteratsiya, izohli tarjima yoki muqobil topiş – matn maqsadiga boğliq ekanini körsatadi. Özbek tilşunosligida esa asosiy e'tibor davlat tilining huquqiy maqomi va me'yorlariga qaratilgan, turizm sohasidagi til muvozanatini alohida örgangan işlar esa nisbatan kam. Şu bois mavzu dolzarbligiça qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsiflaş, qiyoslaş va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Material sifatida me'yoriy-huquqiy hujjatlar, turistik obyektlardagi axborot lavhalari va yöl körsatkiçlar, ovqatlaniş joylari menyulari, mehmonxona va turoperatorlarning veb-sahifalarida uçraydigan matn namunalari hamda gidlar nutqiga xos tipik holatlar olindi. Tahlil uç mezon asosida olib borildi: (1) davlat tilining mavjudligi va matndagi örni; (2) çet tilidagi matnning sifati va töliqligi; (3) tillararo muvofiqlik, ya'ni nom va atamalarning barça tillarda bir xil berilişi.

Tahlil va natijalar. Huquqiy jihatdan qaraganda, tillar mutanosibligi masalasida qarama-qarşilik yöq. Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida özbek tili davlat tili deb belgilangan, şu bilan birga davlat respublika hududida yaşovçi barça millat va elatlarning tillari, urf-odatlari hurmat qilinişini ta'minlaydi. "Davlat tili haqida"gi Qonunda rasmiy yozuvlar, e'lon va axborot matnlari davlat tilida rasmiylaştirilişi, zarur örinlarda boşqa tillarga tarjimasi berilişi mumkinligi nazarda tutiladi. 2019 yilgi Farmon davlat tilining nufuzini oşirişga qaratilgan qöşimça çoralarni belgiladi, 21 oktyabr esa Özbek tili bayrami kuni sifatida nişonlanadigan böldi. "Turizm töğrisida"gi Qonun sohani tartibga solar ekan, sayyohlarga xizmat körsatiş sifati va ularni axborot bilan ta'minlaş masalalarini ham qamrab oladi. Demak, me'yoriy asosda davlat tili asosiy, çet tillari esa xizmat sifatini ta'minlovçi qöşimça vosita sifatida qaraladi.

Kundalik amaliyotda esa manzara boşqaça. Turistik obyektlar atrofidagi yozuvlarni tahlil qilganda tört xil holat ajralib turadi. Birinçisi – faqat çet tilida, köpinça inglizça bitilgan yozuv. Bunday lavha xorijlik mehmon uçun qulay bölsa-da, mahalliy tomoşabinga, jumladan, maktab öquvçilari va keksalarga axborot bermaydi hamda davlat tilining köriniş darajasini pasaytiradi. Ikkinçisi – özbekça matn bor, lekin unga ingliz yoki rus tilidagi variant mazmunan mos kelmaydi: tarjimada sana yoki nom özgarib ketadi, ba'zan esa matn sözma-söz, maşina tarjimasiga xos ğalati birikmalar bilan tölib qoladi. Uçinçisi – davlat tilidagi matnda imlo va uslub xatolari: boş harf, tutuq belgisi, qöşib va ajratib yoziş qoidalarining buzilişi. Törtinçisi – nomlarning turliça yozilişi: bir joyning özi bir lavhada Registon, boşqasida Registan, yana birida Reghistan şaklida beriladi. Xiva – Khiva, Buxoro – Bukhara juftliklarida ham şunga öxşaş holat kuzatiladi. Sayyoh uçun bu mayda narsa emas: xaritadan qidirganda yoki çipta olganda aynan şu tafovut çalkaşlik tuğdiradi.

Veb-sahifalarda asosiy muammo til versiyalarining bir xil töliqlikda emasligida: özbekça sahifa qisqa, inglizça batafsil bölişi yoki aksinça. Ayrim mehmonxona va turoperatorlar saytida bronlaş bölimi faqat bir tilda işlaşi ham uçraydi. Ovqatlaniş joylari menyusida esa nisbatan maqbul amaliyot şakllanmoqda: milliy taomlar nomi (oş, somsa, lağmon, şurva) lotin yozuvida asl şaklida beriladi, qavs içida yoki ostida esa qisqa izoh qöşiladi. Bu usul davlat tilidagi nomni saqlaydi, xorijlik mehmonga esa tuşunça beradi. Taomning bitta özi bir joyda "oş", boşqasida "plov", uçinçisida "pilaf" deb yozilişi esa tillararo muvofiqlik buzilganini körsatadi.

Oğzaki muloqotda davlat tili bilan çet tilining nisbati yozma matndagidan murakkabroq. Gid asosiy axborotni sayyohning tilida beradi, ammo obyekt nomlari, tarixiy atamalar (madrasa, minora, xonaqoh, hazira va ş.k.), taom va hunarmandçilik nomlari özbek tilida qoladi. Muammo şundaki, bu atamalarni tuşuntirmasdan işlatiş sayyohga tuşunarsiz bölsa, ularni butunlay tarjima qilib yuboriş milliy mazmunni yöqotadi. Tajribali gidlar atamani özbekça aytib, darhol qisqa izoh beradi: bu usul ham tilni saqlaydi, ham tinglovçini yöqotmaydi. Xizmat xodimlari uçun esa kamida ikki narsa muhim: salomlaşiş, minnatdorçilik bildiriş kabi etiket iboralarini özbek tilida töğri va iliq aytiş hamda iş yuzasidan ingliz yoki mijozlarning asosiy tilida aniq, qisqa muloqot qila oliş. Birinçisi mehmonga mamlakat madaniyatini his ettirsa, ikkinçisi xizmatning işonçliligini ta'minlaydi. Şuni ham qayd etiş kerakki, ingliz tilidan taşqari rus, xitoy, koreys, turk, nemis kabi tillarga ehtiyoj sayyohlar oqimining yönalişiga qarab özgaradi, şuning uçun har bir hudud öz bozoriga mos til tanlaşi lozim.

Yuqoridagi kuzatuvlar asosida turizm sohasida tillarning vazifaviy taqsimoti quyidagi tarzda taklif etiladi (1-jadval).

1-jadval. Turizmda tillarning vazifaviy taqsimoti (muallif taklifi)

Muloqot vaziyati	Davlat tili	Çet tillari
Lavha va yöl körsatkiçlar	Birinçi örinda, töliq matn bilan	Ingliz tilida mazmunan teng tarjima; kerak bölsa yana bir-ikki til
Obyekt va joy nomlari	Asl şakl, yagona imlo	Lotin yozuvida şu şaklning özi, zarur örinda qisqa izoh
Menyu va narxnoma	Taom nomi asl şaklda	Tarkibi va izohi ingliz hamda asosiy bozor tillarida
Veb-sayt va ilovalar	Töliq asosiy versiya	Töliq ingliz versiyasi; ustuvor bozorlar uçun qöşimça til
Gid va xizmat xodimi nutqi	Etiket iboralari, milliy atamalar	Iş tili sifatida; atamalar izoh bilan

Jadvaldan körinadiki, mutanosiblik har bir tilga teng miqdorda joy ajratiş degani emas. Uning mohiyati har bir tilga öz vazifasini berişda: davlat tili asos va körinadigan birinçi til bölib qoladi, ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida töliq va sifatli xizmat qiladi, qolgan çet tillari esa sayyohlar oqimi va bozor ehtiyojiga qarab qöşiladi. Bunday yondaşuvda çet tilining köpayişi davlat tiliga tahdid emas, balki xizmat madaniyatining körsatkiçi bölib qoladi, davlat tilining mustahkam örni esa mamlakatning öziga xos qiyofasini saqlaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, turizm sohasida davlat tili bilan çet tillari örtasidagi munosabat raqobat emas, balki vazifalar taqsimoti sifatida qaralişi kerak. Tahlil şuni körsatdiki, asosiy muammo tillarning mavjudligida emas, balki ularning sifati, töliqligi va bir-biriga muvofiqligida: çet tili matnlarining mazmunan mos kelmasligi, davlat tilidagi yozuvlarda imlo xatolari, nom va atamalarning turliça yozilişi sayyoh işonçini ham, davlat tilining nufuzini ham pasaytiradi.

Mutanosiblikni ta’minlaş uçun quyidagilarni tavsiya etiş mumkin: birinçidan, turistik obyektlar, şahar va hududlar nomlarining yagona yoziliş röyxatini tuziş hamda uni lavha, xarita va veb-sahifalarda izçil qöllaş; ikkinçidan, axborot lavhalari va menyularning çet tilidagi tarjimasini ikki bosqiçli tekşiruvdan, ya’ni tilşunos va soha mutaxassisi nazoratidan ötkaziş; uçinçidan, jamoat joylaridagi yozuvlarda özbekça matnni birinçi örinda beriş; törtinçidan, gid va mehmonxona xodimlarini tayyorlaşda davlat tilida madaniy muloqot könikmalari bilan birga kamida bitta çet tilini öqitişni uyğunlaştiriş; beşinçidan, kelgusida turistlar va soha xodimlari örtasida sörovnomalar ötkazib, tillar böyiça real ehtiyojni muntazam örganib boriş.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati (References)

1. Özbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir, 2023).
2. "Davlat tili haqida"gi Özbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahrirda, 1995 yil 21 dekabr).
3. "Turizm töğrisida"gi Özbekiston Respublikasi Qonuni, 2019 yil 18 iyul, ÖRQ-549-son.
4. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-son Farmoni "Özbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oşiriş çora-tadbirlari töğrisida".
5. Cohen E., Cooper R.L. Language and tourism // Annals of Tourism Research. – 1986. – Vol. 13, No. 4. – P. 533–563.
6. Dann G. The Language of Tourism: A Sociolinguistic Perspective. – Wallingford: CAB International, 1996.
7. Thurlow C., Jaworski A. Tourism Discourse: Language and Global Mobility. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2010.
8. Crystal D. English as a Global Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
9. Spolsky B. Language Policy. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
10. Cooper R.L. Language Planning and Social Change. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989.
11. Landry R., Bourhis R.Y. Linguistic landscape and ethnolinguistic vitality: An empirical study // Journal of Language and Social Psychology. – 1997. – Vol. 16, No. 1. – P. 23–49.
12. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – М.: Русский язык, 1990.
13. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 1980.